

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TOJIMATOV RASULJON G‘ANIJONOVICH

**MUHAMMAD YUSUF SHE‘RIYATINING LINGVOKONSEPTUAL VA
LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Tojimatov Rasuljon G'anijonovich

Muhammad Yusuf she'riyatining lingvokonseptual va lingvopoetik
xususiyatlari..... 3

Tajimatov Rasuljon Ganijonovich

Lingua-conceptual and lingua-poetic features of Muhammad Yusuf's
poetry..... 25

Тажиматов Расулжон Ганижонович

Лингвоконцептуальные и лингвопоэтические особенности
поэзия Мухаммада Юсуфа 47

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

List of published works
Список опубликованных работ..... 52

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TOJIMATOV RASULJON G‘ANIJONOVICH

**MUHAMMAD YUSUF SHE‘RIYATINING LINGVOKONSEPTUAL VA
LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2021.1.PhD/Fil 1556 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namdu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuldashev Ma'rufjon Muhammadjonovich,
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Iskandarova Sharifa Madaliyevna,
filologiya fanlari doktori, professor

Sobirov Abdulhay Shukurovich,
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "___" _____soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (998-69) 228-85-01, Faks: 228-85-02. Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz, faks: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy. Tel.: (99869) 227-29-81).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "___" _____kuni tarqatildi.

(2024-yil "___" _____dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.Y.Sodiqov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

I.O'.Darvishov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

H.A.Jo'rayev,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy seminar
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligining keyingi davr tadqiqotlari tilning amaliy tomonlari o'rganilishini o'zida birlashtirgan antroposentrizm paradigmalari asosida maydonga kelmoqda. Antroposentrik tamoyillar zahirida inson – ma'lum jamiyat a'zolari, so'ngra millatning shoir va yozuvchilari o'z ijodlarida qo'llagan voqelik hosilasi bo'lgan individual nutqiy ko'rinishlarni tilning asosiy amaliy jihatdan o'rganilishi zarur va muhim bo'lgan tadqiqiy maydon markaziga olib chiqilmoqda. Ayniqsa, antroposentrizm yo'nalishlaridagi lingvokonseptologiya va lingvopoetika sohalarida inson tomonidan borliqni til orqali anglanishi, konseptlar vositasida in'ikos etilishi, inson ongida kechuvchi turli konseptual jarayonlar tafakkur orqali his va idrok qilinishining amaliy jihatlaridagi masalalar unga chambarchas bog'liq bo'lgan shoir va yozuvchilarning konseptosferasini tashkil etgan tushunchalar bilan uyg'un holda o'rganilishini amalga oshirish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligidagi lingvistik hodisalarining ilmiy tadqiqotlari bevosita inson, til, tafakkur va madaniyat kesishmasining muhim birligi bo'lgan konsept va konseptual tadqiqotlarining nazariy asoslariga tayangan holda amalga oshirilishiga zarur ehtiyoj sezilmoqda. Lingvomadaniy konseptlarni ijod ahli tomonidan yaratilgan badiiy asarlar tili orqali o'rganish dunyo tilshunosligida ham jadal tus olayotgani ayni shu ehtiyojni qanoatlantirish yo'lida ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Natijada zamonaviy tilshunoslikda lingvopoetika, lingvokognitologiya, lingvopragmatika, lingvomadaniyatshunoslik, lingvokonseptologiya kabi yangidan yangi fanlararo ilmiy yo'nalishlar mukammalashmoqda. Bu yo'nalishlar orqali til insonning aqliy (mental) strukturalari, tafakkur jarayonlari va ularni keltirib chiqaruvchi lingvistik hamda ekstralingvistik omillar bilan uzviy bog'liq ekanligi masalalarini o'rganish muhim dolzarblik kasb etmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ilm-fan rivojlanishi yo'lidagi harakatlar, ayniqsa, "O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart"ligi¹ har bir fan sohasi, xususan, tilshunoslikning ham yangi taraqqiyot davri uchun tilga va til ilmiga bo'lgan munosabatning yangi bosqichga ko'tarilishi uchun o'zbek tilshunosligi oldiga ham bajarilishi muhim va zarur bo'lgan vazifalarni qo'yimoqda. Bu borada tilimizni mukammalroq, asosliroq o'rganishga yetarli sharoitlar yaratilmoqda. O'zbek tilshunosligida ham so'nggi yillarda antroposentrik paradigmaning barqarorlashuvi tilshunoslikni yangi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitmoqda. Badiiy asarlar orqali millatning milliy madaniyati, ma'naviy olami, xalqning boy tarixiy merosi va til birliklarining axborot jamlash va uzatish vazifasini o'rganish tilshunosligimizda ham muhim va dolzarb vazifalardan biriga aylandi, chunki millatning mohir va taniqli ijodkori tilini o'rganish xalqimizning milliy-madaniy qiyofasini to'laqonli ifodalab berishga xizmat qiladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 2022 йил 20 декабрь. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon va Qarorlar hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining. I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi antroposentrik fanlar kesimida qator falsafiy, milliy-mental, ilmiy-maishiy, ijtimoiy-siyosiy tushunchalar lingvokonsept sifatida tadqiq qilinmoqda. Jumladan, dunyo tilshunosligida konseptlar va u bilan bog‘liq juda ko‘p assotsiativ tushunchalar o‘rganilgan. Jumladan, rus tilshunosligida F.B.Muxutdinova², V.V.Vasyuk³, Y.V.Belik⁴, L.V.Adonina⁵, M.A.Andreyanova⁶, O.A.Chibisheva⁷, N.A.Paskova⁸, Y.V.Mesheryakova⁹, G.A.Sadriyeva¹⁰, I.O.Okuneva¹¹ kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

² Мухутдинова Ф.Б. Концепт «Женщина» во французском языковом сознании (на материале афористики): Автореф. ...дисс. канд. филол. наук. – М., 2006. – 21 с.

³ Васюк В.В. Концепт «женщина» в статике и динамике фразеологии английского языка: Автореф. дисс.. канд. филол. наук. – М., 2002. – 24 с.

⁴ Белик Е.В. Лингвокультурологические особенности лексики и фразеологии современного английского языка (на материале лингвокультурологического поля «мужчина и женщина»): Автореф... дис. канд. филол. наук. – М., 2003. – 23 с.

⁵ Адонина Л.В. Концепт «женщина» в русском языковом сознании: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Воронеж, 2007. – 23 с.

⁶ Андреева М. А. Реализация концепта «мать (mother)» в русском и английском языках (на материале романов М. Горького и Дж. Э. Стейнбека) // М. А. Андреева, Г. А. Багаутдинова. Вестник Челябинского государственного университета. Филология. Искусствоведение. Вып. 55. – Челябинск: Издательство Челябинского государственного университета, 2011. – С. 17 - 22

⁷ Чибисева О.А. Рус в инглиз фразеологизмларида аёл концепти: Автореферат. – Челябинск, 2005. – 31 с.

⁸ Паскова Н.А. Концепт «женщина» в текстах среднеанглийского периода: Опыт семантической реконструкции на основе произведений Дж. Чосера: Автореф. кандидат филологических наук. – Иркутск, 2003. – 36 с.

⁹ Мешерякова Ю.В. Концепт «красота» в английской и русской лингвокультурах: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Волгоград, 2004. – 24 с.

¹⁰ Садриева Г.А. Устойчивые образные средства, репрезентирующие концепт «красота», в английском, русском и татарском языках: Диссертация кандидата филологических наук. – Казань, 2007. – 209 с.

¹¹ Окунева И.О. Концепт “красота” в русском и английском языках. Диссертация кандидата филологических наук. – М., 2009. – 313 с.

O‘zbek tilshunosligida mavzuga doir R.S.Ibragimova¹², M.M.Rahmatova¹³lar tomonidan monografik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, Muhammad Yusuf ijodining lingvopoetik xususiyatlari, lingvokonseptik jihatlari, shoir tilining o‘ziga xosligi D.Shodiyeva¹⁴, N.S.Saydaxmedova¹⁵ va yana bir qator o‘zbek olimlari tomonidan tahlillar asosida o‘rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda o‘zbek millatining kognitiv dunyoqarashida muayyan lisoniy tushunchaning ilmiy, maishiy, ijtimoiy, siyosiy, psixologik, sotsiologik jihatdan tahlil ostiga olinishi o‘rganilgan, biroq ayrim olingan bir ijodkor badiiy kulliyotidagi lingvopoetik jarayon va xususiyatlar lingvokonseptual jihatdan tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbek tilining sistem-struktur antroposentrik tadqiqi” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Muhammad Yusuf she’riyatidagi milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishini, ularning lingvopoetik xususiyatlarni va lisoniy ifoda vositalarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Muhammad Yusuf she’riyatining lingvokonseptual va lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etish orqali tilshunoslikning kognitologiya, psixologiya va lingvomadaniyatshunoslik bilan o‘zaro munosabatlarni ochib berish;

Muhammad Yusuf she’riyatining metaforik va paremiologik birliklarini to‘plash, qiyoslash va tahlillash orqali fonetik-fonologik, leksik-semantik, grammatik-sintaktik vositalarning o‘rnini aniqlash;

Muhammad Yusuf idiosтили aks etgan lingvistik birliklarning lingvopoetik xususiyatlarini sharhlash;

Muhammad Yusuf she’riyatining makrokonsepti doirasiga kiruvchi vatan, ona, muhabbat, odob-axloq mikrokonseptlarini o‘rganish, ularning o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash.

Tadqiqotning obykti sifatida Muhammad Yusuf she’riyatida muayyan lingvopoetik maqsad bilan qo‘llangan til birliklari olingan.

Tadqiqotning predmetini Muhammad Yusuf she’riyatida qo‘llangan til birliklarining lingvokonseptual, lingvomadaniy va lingvopoetik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsiflash, tasniflash, assotsiativ, chog‘ishtirma, statistik va lingvopoetik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

¹² Ибрагимова Р.С. Француз ва ўзбек тилларида аёл концептининг лингвокогнитив тадқиқи. Автореф. Фил. фан номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган. – Тошкент, 2012. – 31 б.

¹³ Раҳматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида “гўзаллик” концептининг лисоний хусусиятлари. Фил. фанлари бўйича фалсафа доктори дисс. автореф. – Бухоро, 2019. – 51 б.

¹⁴ Шодиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърининг лингвопоэтикаси: Фил. фан. номзоди. диссертация. – Тошкент, 2007. – Б. 137.

¹⁵ Сайдахмедова Н.С. Муҳаммад Юсуф ижодини ўргатишнинг замонавий технологиялари: Фил. фан. Бўйича фалсафа докт. (PhD) ...дисс. – Наманган, 2023. – Б. 136.

Muhammad Yusuf she'riyatining o'zbek xalqi madaniyatida tutgan milliy, ma'naviy va tarixiy o'rni, so'z qo'llashdagi uslubi va usullari, badiiy dunyoqarashdagi yetuk saviyasi shoirning o'zigagina xos milliy, xalqona va ixcham shakllardagi she'riy nutqining voqelanishi, ularning maishiy, madaniy ijtimoiy sabablari hamda etnik va mental lingvomadaniy belgi-xususiyatlari, lisoniy birliklarning qo'llanishidagi mahoratning soddalik va aniqlik kabi o'ziga xos jihatlari tarixiy haqiqat bilan badiiy haqiqatga individual badiiy yondashuv ekanligi milliy konseptual dalillar orqali isbotlangan;

shoir she'rlari badiiyatida milliy dunyoqarashning lingvomadaniy belgilar asosida aks ettirilishi aniqlanib, bu lisoniy jarayonlar shaxs milliy ong va tafakkuri uchun umumijtimoiy yoki hayotiy turmush davomida orttirilgan lisoniy-madaniy hodisa ekanligi dalillangan;

shoir she'rlarida ta'sirchanlik va bo'yoqdorlikni oshirish uchun qo'llangan atoqli otlar – onomastik birliklar bo'lgan poetonimlarning vazifaviy, uslubiy va shakliy o'ziga xos belgi-xususiyatlari, ularning ilmiy-badiiy va nazariy-amaliy qonuniyatlari asoslangan;

lingvokonseptual va lingvopoetik xususiyatlarlarni o'ziga qamrab olgan lisoniy hamda birliklarning fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfologik-sintaktik shakllari asosida namoyon bo'lgan alliteratsiya, assonans, geminatsiya, sintaktik parallelizm, farqlash, sintaktik gradatsiya hodisalari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot doirasida to'plangan materiallar asosida Muhammad Yusuf she'riyatining lingvokonseptual va lingvopoetik xususiyatlariga oid maqol, matal, ibora va poetik matnlar lug'atini tuzishga xizmat qilishi asoslangan;

dunyoning konseptual manzarasini o'rganishda mazkur tadqiqot ishi o'zga mikro-makrokonseptlar maydonini yaratish va lingvomadaniy-lingvokognitiv bilimlarni boyitishda muhim ahamiyatga ega ekanligi dalillangan;

antroposentrik paradigma doirasidagi izlanishlarda, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi jarayonida talabalarga lingvokulturologik bilimlarni o'zlashtirishda bevosita manba bo'lib xizmat qilishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada tanlangan muammoning aniq qo'yilganligi, o'rganilgan va tahlilga tortish uchun tanlab olingan she'riy misralardan iborat bo'lgan misollardan subyektiv to'xtamlarga kelinganligi va asosli ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilganligi, shoir she'riyatining lingvokonseptual va lingvopoetik xususiyatlarini ifodalagan lingvistik vositalarning tutgan o'rni masalasi hamda til egasi bo'lgan o'zbek millatining milliy ongi va tafakkuri bilan uyg'un va hamohang tarzda o'rganilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati milliy lingvomadaniy birliklarning konseptual xususiyatlari asosida maydonga kelgan mavjud nazariy qarashlarni yangi vujudga kelgan xulosalar va to'xtamlar asosidagi bilimlar bilan boyitishga xizmat qilishi, lingvokognitiv, lingvomadaniy tilshunoslik, etnolingvistika sohasida olib borilayotgan tadqiqot ishlariga, xususan, olamning lisoniy manzarasida aks etuvchi ijtimoiy, milliy-mental konseptlarning kognitiv maydonini belgilashda, ularning

badiiy matn hosil qilishdagi oʻrni, vazifalari hamda lingvistik xususiyatlarini aniqlashda nazariy asos vazifasini bajarishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oʻzbek tilining lingvomadaniy fonetik-fonologik, leksik-semantik va grammatik asoslarini, milliy-badiiy konsept birliklarining assotsiativ lugʻat fondi, jamlamalarini va lugʻat qoʻllanmalarni yaratishda, oliy oʻquv yurtlarining filologiya yoʻnalishi talabalariga maʼruza, seminar mashgʻulotlarini tashkil qilishda samarali foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Muhammad Yusuf sheʼriyatining lingvokonseptual va lingvopoetik xususiyatlarining tadqiqi boʻyicha olingan ilmiy natijalari asosida:

Muhammad Yusuf sheʼriyatining oʻzbek xalqi madaniyatida tutgan milliy, maʼnaviy va tarixiy oʻrni, soʻz qoʻllashdagi uslubi va usullari, badiiy dunyoqarashdagi yetuk saviyasi shoirning oʻzigagina xos milliy, xalqona va ixcham shakllardagi sheʼriy nutqining voqealanishi, ularning maishiy, madaniy ijtimoiy sabablari hamda etnik va mental lingvomadaniy belgi-xususiyatlari, lisoniy birliklarning qoʻllanishidagi mahoratning soddalik va aniqlik kabi oʻziga xos jihatlari tarixiy haqiqat bilan badiiy haqiqatga individual badiiy yondashuv ekanligi milliy konseptual dalillar orqali isbotlangan oʻrin va fikrlardan Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan FA-F1-G003 “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional soʻz yasalishi” (“Функциональное словообразование в современном каракалпакском языке”) mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpogʻiston Respublikasi boʻlimining 2023-yil 18-yanvardagi 18.01/09-son maʼlumotnomasi). Natijada oʻzbek badiiy asarlari tilidagi soʻzning konnotativ maʼnolarining voqelanishi, soʻz maʼnosidan milliy-maʼnaviy omillarning taʼsirida yuzaga keladigan jihatlarining nazariy asoslari ilmiy jihatdan kengaytirilgan va toʻldirilgan;

lingvokonseptual va lingvopoetik xususiyatlarini oʻziga qamrab olgan lisoniy lingvistik birliklarning fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfologik-sintaktik shakllari asosida namoyon boʻlgan alliteratsiya, assonans, geminatsiya, sintaktik parallelizm, farqlash, sintaktik gradatsiya hodisalari aniqlangan toʻxtam va xulosalardan Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan FA-A1-G007 “Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida” mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihada foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimining 2023-yil 18-yanvardagi 18.01/09-son maʼlumotnomasi). Natijada oʻzbek badiiy asarlari tilidagi naql-maqollarning milliy-maʼnaviy, ijtimoiy-tarixiy ildizlari tilning milliy tabiati bilan uzviy aloqada ekanligi haqidagi ilmiy qarashlar toʻldirilib, poetik soʻzlarning badiiyatda tutgan oʻrni masalasi yangi fikrlar bilan boyitilgan;

shoir she'rlari badiiyatida milliy dunyoqarashning lingvomadaniy belgilar asosida aks ettirilishi aniqlanib, bu lisoniy jarayonlar shaxs milliy ong va tafakkuri uchun umumijtimoiy yoki hayotiy turmush davomida orttirilgan lisoniy-madaniy hodisa ekanligi dalillangan hamda shoir she'rlarida ta'sirchanlik va bo'yoqdorlikni oshirish uchun qo'llangan atoqli otlar – onomastik birliklar bo'lgan poetonimlarning vazifaviy, uslubiy va shakliy o'ziga xos belgi-xususiyatlari, ularning ilmiy-badiiy va nazariy-amaliy qonuniyatlari asoslangan o'rin va xulosalardan O'zbekiston teleradiokompaniyasining "Madaniyat va ma'rifat" telekanalida efirga uzatilgan "Til ziynati", "Ma'naviyat ko'zgusi" ko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2023-yil 13-martdagi 01-45-396-son ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuvning ssenariysi mazmunan boyitilgan, ularning ilmiy asoslanganligi hamda ommabopligi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika, 6 ta xalqaro xorijiy jurnallarda, jami 12 ta ilmiy ish nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Ishning umumiy hajmi 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**She'riy matn lingvokonseptual va lingvopoetik tadqiqining ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobi ikki paragrafdan iborat bo'lib, uning birinchi paragrafida "**Filologiyada konsept va lingvokonseptga oid ilmiy tadqiqotlar o'rganilishi**" masalasi tahlilga tortilgan.

1928-yilda S.Askoldov tomonidan "Konsept va so'z" maqolasida ilk bor ilmiy iste'molga kiritilgan,¹⁶ XX asrning 90-yillaridan boshlab fanda keng qo'llanayotgan konsept termini bugungi tilshunoslikda ham markaziy tushunchalardan biri bo'lib qolmoqda.

N.Teliyaning ta'rificha, konsept – bilimning hajmini kengaytirishga qaratilgan, biz obyekt haqida bilgan, tasavvur qilgan narsa. Demak, u so'zning ma'nosini kengaytiradi, fikrlashga, faraz qilishga imkoniyat yaratadi.

¹⁶ Аскольдов С.А. Концепт и слово / Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. – Москва: Академи: 1997.

G.Slishkinning fikriga ko'ra, esa qanchalik konseptni ifodalovchi belgilar potensial bo'lsa, konsept shunchalik qadimiy bo'ladi va o'sha til jamoasida uning qimmati ortadi. Demak, shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, har qanday obyekt konsept bo'la olmaydi.

Mohiyat va dalillar konsept ma'nosiga monand bo'lib, dunyo haqidagi ma'lumotlarning boshqa bir ma'lumotlar bilan moslashgan shakli, tasavvur qilingan bilimlar tizimlanishidir.

K.Yusupov nuqtayi nazarida "konsept bu – ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo'lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya'ni baholashlar"¹⁷. Olimning nazarida, konsept – obyektga bo'lgan shaxsiy munosabat.

Konsept haqida tilshunoslikda yagona ta'rif keltirilmagan. Natijada, fanda konseptni tushunishda uchta asosiy yondashuv kuzatiladi: lingvistik, kognitiv, madaniyatshunoslik nuqtayi nazardan yondashuv.

Kognitiv tilshunoslik va pragmatika muammolari bilan jiddiy shug'ullangan o'zbek tilshunosi prof. Sh.Safarov¹⁸ ham konsept haqida gapirar ekan, negadir uning lingvomadaniy va etnomilliy jihatlariga yetarli e'tibor bermaydi.

Taniqli tilshunos olim Nizomiddin Mahmudov o'zining "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..."¹⁹ nomli maqolasida konseptga rus tilshunosligida berilgan ko'pdan-ko'p ta'riflar orasida V.A.Maslova tomonidan ilgari surilgan ta'rif haqiqatni aniqroq aks ettiradi, deya e'tirof etgan.

Uningcha, konsept – "bu lingvomadaniy o'ziga xoslik qayd etilgan va muayyan etnomadaniyat egalarini u yoki bu tarzda tavsiflovchi semantik tuzilmadir"²⁰.

Umuman, konsept atamasini kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazardan juda ko'p tilshunos olimlar, jumladan, D.Lakoff, R.Langaker, M.Jonson, Ch.Filmor, S.Kubryakova, A.P.Babushkin, J.R.Anderson, P.Zekendorf, S.Shifer kabi olimlar o'rgangan bo'lsa; psixolingvistikada A.A.Leontyev, A.A.Zalevskaya; lingvokulturologiyada Y.S.Stepanov, N.D.Arutyonova, V.I.Karasik, V.V.Vorobyov, V.V.Kolesov, G.G.Slishkin, S.X.Lyapin²¹ tomonida va boshqa olimlar tadqiq etganlar.

N.Mahmudov lingvokulturologiyada konseptning o'rganilishi xususida to'xtalib, shunday yozadi: "Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunoslikda bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganini ko'rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog'iga yetish mushkul. Hatto so'nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda

¹⁷ Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультуре атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида: Илмий амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011. – Б.49.

¹⁸ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор., 2006. – Б.17-18.

¹⁹ Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. – №5. – Б.3-16.

²⁰ Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск: Тетра Системс, 2008. – С.50.

²¹ Усманова Ш. Лингвокультуроология. – Тошкент, 2014. – Б.43.

katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag‘ishlangan”²².

Professor Sh.Usmanova konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ifoda qilishini e’tirof etadi²³. Shundan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologik konsept madaniyatning etnomadaniy xususiyatga ega bo‘lgan va borliq haqidagi funksional ahamiyatga ega informatsiyani uzatadigan asosiy birligidir.

D.U.Ashurovaning qayd etishicha, “konsept deb hamma tushunchalarni ham atash noto‘g‘ri, balki dunyo va milliy madaniyat sohalarida muhim rol o‘ynaydigan tushunchalargina konsept deb atalishi mumkin²⁴”. Konsept terminiga o‘zbek tilshunoslaridan N.Mahmudov²⁵, Sh.Safarov²⁶ hamda A.Mamatovlar²⁷ ham izohlar berishgan.

Fikrimizcha, konsept ko‘p qirrali va ko‘p qatlamli mental tuzilmadir. Shuningdek, u bir vaqtning o‘zida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarini namoyon etadi. Zero, konseptning kognitiv va lingvokulturologik tadqiqotlar obyekti sifatida tavsiflanayotganligi ham shundan dalolat beradi. Shu sababli konseptning tadqiqotchilar tomonidan subyektiv, ijtimoiy, lingvomadaniy, badiiy konseptlar sifatida tiplarga ajratilganligini yagona mohiyatga turli jihatdan yondashuv sifatida baholash mumkin. Zotan, til tizimi yuqoridagi sifatlarni o‘zida jamuljam etgan nihoyatda serqirra hodisalardan biri hisoblanadi²⁸. Masalan, Muhammad Yusufning:

Xo ‘mraysa ko ‘k xo ‘rsinar,

Kulmasa kun chiqmaydi.

El yig ‘lasa, er yigit

Ot ustida uxlaydi (“Halima enam allalari”)²⁹

satrlarini konseptologik nuqtayi nazardan quyidagicha sharhlash mumkin. Bu satrlarda el, er yigit va ot leksemalari asosiy mazmuni ifodalovchi kalit so‘zlar deyish mumkin. *El* so‘zi izohli lug‘atda quyidagicha tavsiflangan: 1. Bir joyning odamlari, aholisi, xalqi; umuman, ko‘pchilik odam, xaloyiq, hamma. 2. Bir yurtga, qabilaga mansub odamlar; millat, xalq. Qipchoq eli. Mang‘it eli. Qardosh ellar. 3. Yurt, diyor, mamlakat.³⁰ Shuningdek, mazkur so‘z *el bo‘lmoq* (chiqishmoq) ma’nosida “Asli dushman el bo‘lmas, Etakni kessang, yeng bo‘lmas”, “Tomchi sel bo‘lmas, Dushman el bo‘lmas” kabi maqollar tarkibida ham kuzatiladi.

²² Махмудов Н.Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб...\\ Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 9.

²³ Усманова Ш. Лингвокультуроология. – Тошкент., 2019. – Б. 44.

²⁴ Каримов У.Н. Концепт тушунчаси ва унинг бадий адабиётдаги моҳияти // ЎзМУ хабарлари, 2017. – №1/5. – Б. 416-417.

²⁵ Махмудов Н.Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб...//Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент., 2012. – № 5. – Б. 3-16.

²⁶ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор., 2006.

²⁷ Маматов А.Е. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилаётган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон., 2012. – Б. 212.

²⁸ Худайберганава Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол.фан.док. ... диссер.автореф. – Тошкент., 2015. – Б.11-12.

²⁹ М.Усиф. Halima enam allalari. – Toshkent, 2019. – В. 14.

³⁰ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2020. 5-jild. – В. 30.

Er yigit birikmasidagi *er* soʻzining izohli lugʻatda quyidagi maʼnolari berilgan: 1. Erkak jinsiga mansub kishi; erkak. Er siylagan yerda aziz. Maqol. Angʻizli yerda ot oʻlmas, Iyirli yerda er oʻlmas. Maqol. 2. Xotin kishi bilan nikoh ahdida boʻlgan erkak kishi; qalliq (oʻz xotiniga nisbatan). Eldan qolguncha erdan qolgan yaxshiroq. Maqol. Yaxshi xotin erni er qiladi, yomon xotin – yer (qiladi). Maqol. 3. Mard, oliyjanob, jasur kishi. Er boshiga ish tushsa, etik bilan suv kechar, Ot boshiga ish tushsa, suvluq bilan suv ichar. Maqol. Er yigit maydonda bilinar. Maqol. Er yigit enasi gʻarib oʻlarmi, Enam deb, mastonga koʻngil berarmi? «Rustamxon»³¹.

Ot leksemasining denotativ maʼnosi “Yakka tuyoqlilarga mansub oʻtxoʻr, sutemizuvchi yirik ish-ulov hayvoni. Otga taqa qoqmoq. Otga minmoq. Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi Maqol³². Konnotativ, maʼnoda esa *ot solmoq, otday boʻlib ketmoq, otdan tushsa ham egardan tushmaydi* kabi frazeologizmlar tarkibida qoʻllanadi. Shu bilan birga, oʻzbek folklori va yozma adabiyotda ot yaqin doʻst, yigit kishining doimiy hamrohi, mashaqqatli kunlarda yordamchisi, milliy xususiyatlar ifodachisi, ramzi sifatida mardlik timsoli etib tasvirlanadi. Oʻzbek tili uchun el, er yigit, ot konseptlarining har biri milliy-madaniy tushunchalarni ifodalovchi leksemalar sifatida baholanishi mumkin. *El, er yigit* va ot leksemalari yuqoridagi satlarda *tinchlik* konseptini ifodalashga xizmat qilmoqda.

Konsept strukturasi quyidagi darajalarni oʻz ichiga olgan bir qator struktur komponentlarni ajratib olish mumkin³³: 1) etimologik daraja oʻzida konsept semantikasi tarixiy taraqqiyot yoʻlining tavsifini, uning denotativ va konnotativ maʼnolari shakllanishini namoyon etadi; 2) asosiy daraja, oʻzida konseptning zamonaviy qomusiy maʼnolari majmuini namoyon qiladi; 3) assotsiativ-kengaytiruvchi daraja, konsept strukturasi assotsiativ aloqalar negizida vujudga keluvchi barcha denotativ va konnotativ maʼnolari yigʻindisini oʻz ichiga oladi.

V.I.Karasik fikriga koʻra esa, konsept strukturasi uch asosiy komponent orqali namoyon boʻladi: 1) predmetli-obrazli xotirada muhrlangan u yoki bu obyekt, predmet, sifat, hodisa bilan bogʻliq bir butun umumiy izdir; 2) tushunchaviy tarkibi, freymda shakllanadi; 3) konseptning mazmuniy mohiyatini oʻz ichiga olgan tushunchaviy-ratsional qismi. Mazkur yondashuvlar tahlili shuni koʻrsatadiki, koʻplab tadqiqotchilar konsept strukturasi uch asosiy komponentni ajratadilar.³⁴

Konsept antroposentrik paradigma asosida rivojlanayotgan qator fanlarning, xususan, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvokulturologiya, etnolingvistika, estetika, adabiyotshunoslik kabi fanlarning asosiy birligi sifatida yuzaga chiqdi.

³¹ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. – Toshkent, 2020. 5-jild. – B. 45.

³² Oʻzbek tilining izohli lugʻati. – Toshkent, 2020. 3-jild. – B. 150.

³³ Степанов Ю.С.Юкоридаги манба. – Б. 42-45; Филиппова М.А. Концепт «демократия» в американской лингвокультуре // Известия Волгоградского педагогического гос. ун-та, – Волгоград, 2007. – N 2. – С. 18-22.

³⁴ Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – М.: Гнозис, 2004. – С. 109.

Bobning ikkinchi paragrafida **“She’riy matn lingvopoetik tahlilining asosiy tushunchalari va nazariy manbalari”** yoritib berilgan va munosabatlar bildirilgan.

Keyingi yillarda badiiy so‘z qudratini, badiiy asar mazmun-mohiyatini kitobxonga yetkazishda muallifning so‘z qo‘llash mahorati va o‘ziga xos yondashuvlarini ochib berishda lingvopoetika sohasining o‘rni muhim sanalmoqda. Lingvopoetika, Abdurauf Fitrat ta’riflaganiday: “..fikir, tuyg‘ularimizdagi to‘lqunlarni so‘zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham shu to‘lqinlarni yaratmoq³⁵” vazifasini bajaruvchi adabiyotning nafis so‘z qo‘llash san’ati ekanligini yana bir bor isbotlovchi, badiiy matnda qo‘llangan har bir sintaktik birlik, so‘z, qo‘shimcha, bo‘g‘in va tovushning ma’no jilolarini tadqiq etuvchi soha sifatida bugungi kunda taraqqiy etib bormoqda. Bu sohada o‘zbek tilshunosligida N.Mahmudov, A.Nurmonov tamal toshlarini qo‘ygan bo‘lsalar, M.Yuldashvning tadqiqotlari, ayniqsa, ahamiyatli bo‘ldi³⁶. Olim badiiy matnning lingvopoetik tahlil qilishning asosiy tamoyillarini ko‘rsatib bergan³⁷.

Tilning asosiy vazifalari sifatida aloqa-aralashuv vositasi (kommunikativ), bilim va ma’lumotlarni ajdodlardan avlodlarga yetkazish vazifasi (kumulyativ) qatorida emotsional-ekspressivlini ifodalash va tinglovchiga, o‘quvchiga yetkazish funksiyasi ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu funktsiyaning to‘laqonli amalga oshirilishi esa she’riy matnda yetakchilik qiladi. “Ana shu xususiyatlarga ko‘ra, poetik nutq prozaik nutqdan keskin farqlanadi va nutq muallifining his-tuyg‘ularini emotsional-ekspressiv tarzda ifoda etgan holda, adresatga ta’sir qiladi, uning tuyg‘ularini uyg‘otadi”³⁸.

She’riy matnda har bir tovush (harf), bo‘g‘in, urg‘u, ohang, so‘z, birikma, jumlaning o‘rni, qo‘llanishi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Shoir har bir til birligini mohirona qo‘llagandagina ko‘zlagan maqsadiga erisha oladi. Shu bois lingvopoetikaning fonopoetika, leksik poetika, poetik sintaksis yo‘nalishlari uyg‘un tarzda rivojlanib bormoqda. She’riy matnning lingvopoetik tahlili emotsional-ekspressivlikni ifodalashda har bir til birligining ahamiyatini ochib berishga alohida ahamiyat berishni talab qiladi. Lingvopoetikaning she’riy matn tahliliga aloqador eng muhim qismi fonopoetika hisoblanadi. Fonopoetika orqali she’riy matnda hijolar, urg‘u va ohang, to‘xtamlarning lingvistik xususiyatlari va emotsionallikni oshirishdagi ahamiyati ochib beriladi. “Poetik nutqdagi tovushlar bilan bog‘liq o‘zgarishlar, urg‘u, to‘xtam, bo‘g‘in, turoq kabi fonopoetik vositalarning tadqiqi poetik nutq sharhi va tahlilida muhim bosqich vazifasini o‘taydi”³⁹.

Muhammad Yusuf she’riyatini fonopoetik nuqtayi nazardan kuzatadigan bo‘lsak, keskin tarixiy vaziyatlar, voqealar tasvirlangan she’rlarda shoir erkin

³⁵ Фитрат А. Танланган асарлар. 4-жилд. – Тошкент, 2006. – Б. 12.

³⁶ Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2008. – 159 б; Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент, 2002. – 80 б.

³⁷ Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2008. – Б.159.

³⁸ Абдулаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. – Фарғона, 2021. – Б. 3.

³⁹ Турсунова О. Ўзбек тили фонетик бирликларининг поэтик имкониятлари: Филол. фан. фалсафа доктори диссер. – Фарғона, 219. – Б.21.

vaznga murojaat qilganligini va misralardagi hijolar miqdorining turlicha va qisqa ifodalanganligini ko‘rishimiz mumkin.

She‘riy matnda leksik birliklarning o‘ziga xos ma‘no qirralari, jilolariga ega bo‘lishi ma‘lum. Albatta, bu o‘rinda ma‘no ko‘chmlari, semantik munosabatlarning murakkablashuvi, kontekstual sinonimiya, antonimiya, polisemiya hodisalarining zohir bo‘lishi kabilar ayriча ahamiyat kasb etadi. She‘riy matn ijodkordan so‘z qo‘llshga alohida yondashuvni, shakl va mazmun birligi va uyg‘unligi uchun munosib til birliklaridan foydalanishni taqozo etadi. O‘zbek she‘riyatida ana shunday so‘zni saylab, uning barcha ohanglarini anglab va tuyg‘ulariga, g‘oyalariga eng munosibini saralab qo‘llagan shoir sifatida Muhammad Yusuf she‘riyati ko‘plab adabiyotshunos va tilshunoslar tadqiqotiga obyekt bo‘lgan. D.Shodiyeva o‘zining “Muhammad Yusuf she‘riyati lingvopoetikasi” mavzusidagi ilmiy tadqiqotida M.Yusuf she‘rlarining sutkaning yorug‘ va qorong‘u qismini ifodalovchi kecha va kunduzning paytlari ham qarshilantirilishi bilan birga, o‘ziga xos qo‘llanishi kitobxonning yodida qolishini ta‘kidlaydi⁴⁰:

Men esa oshig‘ing

Sening – eng g‘arib.

Tundan so‘z qarz olib,

Tongga tutguvchi. («Biz baxtli bo‘lamiz»)

Tunda to‘ydan topib, ko‘z urushtirib,

Kunduz tor ko‘chada tanimay qolar. («Bu qiz...»)

Sen saratonda ham yashnagan bahor,

Sen zimistonda ham chaqnagan nahor. («Qari qiz»)

Tongim kulgu edi,

Shomim xavotir. («Tug‘ruqxonada»)

Tonging bahor edi,

Oqshoming kuzdir. («Hayot bu...»)

Olimaning fikricha, shoir o‘z she‘rlariga antonimlar mohirlik bilan olib kira oladi. M.Yusuf o‘zbek tilidagi so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatlariga ko‘ra turlari hisoblanadigan omonim, sinonimlarning imkoniyatlaridan to‘la foydalana oladi. Keltirilgan misollarda tun – tong, zimiston – nahor, tun – kunduz, tong – shom, tong – oqshom so‘zlari orqali antitezani hosil qilgan. Bunda quyidagi holatlarga diqqat qilishimiz mumkin: O‘zbek tilidagi tun – tong, zimiston – nahor, tun – kunduz, tong – shom, tong – oqshom⁴¹ kabi antonimlarini misralarga o‘ziga xos marvarid shodasiday tiza olgan shoirning uslub borasidagi o‘ziga xos badiiy mahoratini isbotlaydi.

Lingvopoetika tarkibiy qismlari orasida poetik sintaksis she‘riy matn strukturasi va unda sintaktik sath birliklarining ma‘no qirralarini ochib berishda alohida o‘rin tutadi. O‘zbek tilshunosligida poetik sintaksis masalalarini atroflicha monografik planda tadqiq etgan M.Abdupattoyev muallif g‘oyasi va tafakkuri

⁴⁰ Шодиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърини лингвопоэтикаси. Фил. фан. ном. ...дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 137.

⁴¹ Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 173-174.

mahsuli bo'lgan asosiy fikr-tuyg'ularining izchil ifoda etilishi kompozitsion-sintaktik strukturaning qanchalar mukammal tuzilgani bilan chambarchas bog'liq ekanligini alohida ta'kidlaydi⁴². She'riy matnda periodlarning ahamiyati haqida so'z yuritir ekan, M.Yusuf ijodidan olingan namunalar asosida fikrlarini dalillaydi⁴³. Darhaqiqat, poetik sintaksis lingvopoetikaning alohida sohasi sifatida poetik nutqning semantik-struktur tadqiqi, kompozitsion-struktur tuzilishi, sintaktik figuralar, takror kabi qator masalalar tahlilini amalga oshiradi.

Ma'lumki, har bir muallifning o'ziga xos mavzu va g'oyalari, fikr ifodalash yo'sini mavjud. Masalan, Asqad Muxtor she'riyatida falsafiylik, G'afur G'ulom she'riyatida donishmandlik va teranlik, Erkin Vohidov asarlarida so'zning nafis imkoniyatlaridan zargarona foydalanish, sharqona mayinlik, Abdulla Oripov she'rlarida obrazli tafakkurning o'ziga xosligi kabi Muhammad Yusuf she'riyatida esa vatanparvarlik g'oyalarining yetakchiligi va xalqona sodda ifodalar idiostilni yuzaga keltirgan omillardan biri, deb hisoblashimiz mumkin.

Dissertatsiyaning **“Muhammad Yusuf she'riyatining mavzuiy ko'lamini belgilovchi lingvokonseptlar tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobining birinchi paragrafi **“Vatan lingvokonsepti”**ni tahlil qilishga va uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Badiiy konsept ma'lum bir «hissiy va estetik zo'riqish»ni yaratishga qodir va ayni paytda idrok tushunchalari shakllantirishga qodir bo'lgan tushunchalarni ifodalaydi. Ehtimol, badiiy konsept tuzilishida umumiy va individual ma'naviy ma'nolarni, ya'ni emotsional-baholovchi narsalar (salbiy va ijobiy yoki bo'yoqdorlik va boshqalar)ni ajratib ko'rsatish orqali o'ziga xoslikni ifodalashi mumkin bo'ladi. Shu bois ham Vatan konsepti keng va tor ma'noda tushunish mumkin. Tor ma'noda kishining tug'ilib o'sgan yurti, muayyan xalqqa tegishli hudud ma'nosini anglatsa, keng ma'noda esa, muayyan qit'a vakillari uchun o'z qit'alari umumiy vatan, bashariyat uchun Yer sayyorasi yagona makon sanaladi.

Muhammad Yusuf ijodida Vatan mavzusi eng yetakchi mavzulardan biri. Vatan konsepti shoir she'rlarida turli obrazlar va vositalar orqali betakror aks ettirilgan. Shoir she'rlari jamiyatimizning ma'naviy yuksalishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan, bugungi kunda ham o'zbek she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega.

Shoir ijodida asosiy o'rinlarda turuvchi vatan mavzusidagi she'rlar o'zgacha ohang va takrorlanmas misralarda jo bo'lganligi bois ulardagi obraz yorqin va ta'sirchan deyishimiz mumkin. Shoir **“Vatanim”**⁴⁴ she'rida:

*Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen,
Yuzing bosib yuzimga,
Singlim deymi,
Onam deymi,
Hamdard-u hamxonam deymi,*

⁴² Абдупаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. – Фарғона, 2021. – Б. 53.

⁴³ Абдупаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. – Фарғона, 2021. – Б. 36.

⁴⁴ Юсуф М. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 275.

*Oftobdan ham o'zing mehri,
Ilig'imsan Vatanim.*

Shoir Vatan timsolini singlisida, onasida ko'radi. Ona – buyuklarning eng buyugi, ulug'larning eng ulug'i, suyuqli zotlarning eng suyuqlisidir. Ba'zan bu so'zga ta'rif berishga ojiz qolasan kishi. Bu nomga shoir-u yozuvchilarimiz o'z ijod namunalarida munosib baho aytgan allalarchalik, ular bedor o'tkazgan tunlarchalik nazm bitmasligi mumkin, biroq imkon qadar onani vasf etadi. Ana shunday buyuk zot timsolida shoir Vatanni ko'radi. Darhaqiqat, bolaning ilk qadamini ko'rgan ona uchun bundan-da ortiq quvonch bo'lmaydi. Ona kabi Vatan ham bag'rida yashayotgan xalqining yutuqlaridan, shodon kunlaridan sevinadi. Uning yo'llariga gul-u maysalar tutadi. Opa-singil kabi ko'ngli xira vaqtlarda hamdard-u hamroh bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, shoir oddiy hayotiy voqealar asosida ajoyib o'xshatishlar va teran falsafiy mushohadaga ega bo'lgan misralar yaratgan.

Ikkinchi bobning **“Ona lingvokonsepti”** deb nomlangan ikkinchi paragrafida shoir ijodidagi ona obrazi va uning lingvokonseptik xususiyatlari yoritiladi.

Muhammad Yusuf she'riyatining bosh mavzusi, markazi bu, albatta Onaga bo'lgan muhabbat. Bunda ijodkor insoniy tuyg'ular va bu tuyg'ularning bosh omili, gultojisi bo'lgan Onaga cheksiz muhabbat va ehtiromini tarannum etadi. Masalan, shoirning Ona haqidagi she'rlari har qaysi yoshdagi insonning yuragini larzaga keltiradi. She'rlardagi kechinmalar har qanday insonning quvonch-u dardi bilan chambarchas bog'liq. So'zlar goh o'y-xayolga toldiradi, goh chinakam ruhiy mamnuniyat, surur bag'ishlaydi.

<i>Men sizni o'ylayman shom-u saharda, Ona, sog'insam ham bora olmayman, Tunlari charog'on shunday shaharda Hech kimga ko'nglimni yora olmayman.</i>	<i>Hammaga ishondim, mana oqibat: O'z do'stim uyiga ko'mildi sevgim, Kun bo'lib ko'ksimni kuydirdi nafrat. (“Onamga xat”).</i>
<i>Men siz aytgandayin hammani sevdim,</i>	

Muhammad Yusuf ijodida asosiy o'rinlarda turuvchi ona lingvokonsepti mavzusidagi she'rlar o'zgacha ohang va takrorlanmas misralarda jo bo'lgan.

Bobning uchinchi paragrafi **“Muhabbat lingvokonsepti”** deb nomlangan. Mazkur paragrafda shoir she'rlaridagi sevgi-muhabbat lingvokonsepti tahlilga tortilgan.

Borliqdagi predmet va hodisalarni bilish, idrok etish bir qator mantiqiy va ruhiy harakatlar bilan bog'liq holda amalga oshadi. Bu faoliyatning dastlabki bosqichini ma'lum bir obyektning boshqa obyektlardan farqlash amali tashkil qiladi. Keyingi bosqichda esa farqlovchi belgilarni chog'ishtirish asosida obyektning hissiy obrazi yuzaga keltiriladi. Navbatdagi bosqichda hosil qilingan hissiy obraz inson xotirasidagi boshqa ramzlar bilan taqqoslangan holda, umumlashtiriladi. Muhammad Yusuf ijodida muhabbat lingvokonsepti o'ziga xos leksik va sintaktik vositalar, ramzlar orqali voqelantiriladi:

*O'tar qancha yillar to'zoni,
Yulduzlar ko'z yoshi samoni,
O'tar inson yaxshi, yomoni,
Mehr qolur, muhabbat qolur.*

Mazkur satrlarda mehr va muhabbat hayot charxpalagini aylantiruvchi kuch sifatida tasvirlanadi.

Shoir she'riyatidagi turfalik, insoniy tuyg'ular qalbimizni junbushga keltirmasdan iloj yo'q. Muhammad Yusufning chiroyli va ma'nodor she'rlarida biz tarixga, o'tmishga nazar tashlaymiz, yurtimiz bilan xayolan suhbat qurganday bo'lamiz, insoniy tuyg'ular og'ushida ajib xayollarga berilamiz. Har bir ijodkorning takrorlanmas ijodi bor. Muhammad Yusufning ham bir qarashda oddiy, ko'ringan, lekin hech kim ana shunday yoza olmaydigan ijodi bor.

Ishning **“Muhammad Yusuf she'riyatidagi ayrim birliklarning badiiy til xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobi birinchi paragrafida **“Muhammad Yusuf ijodida qo'llanilgan poetonimlarning lingvopoetik, jihatdan tahlil qilish tamoyillari”** haqidagi fikrlar hamda tahlillar asosidagi to'xtamlar bayon qilingan.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida ayrim olingan ijodkor badiiy mahsullarida lingvopoetik yondashuvning takomillashuvi badiiy matni tashkil qiluvchi til birliklarini har tomonlama tadqiq qilish masalasini muhim ahamiyatga ega vazifalardan biriga aylanmoqda, chunki har qanday til birligi badiiy matnda muallifning badiiy niyatiga xizmat qiluvchi bebaho vositaga aylanishi hamda o'ziga xos poetik qonuniyatlarni namoyon qilishi mumkin.

D.Quronov o'zining **“Badiiyat sirlari”** maqolasida: taniqli adabiyotshunos M.Baxtin eng oddiy jumladan to yirik adabiy asarlargacha – barchasini **“nutqiy janrlar”** tushunchasi doirasida sharhlar ekan, ularni jarayondagi bir zanjir deb hisoblaydi. Darhaqiqat, nutq jarayonida aytilgan gap mazmuniga so'zlovchi bunga qadar aytgan gaplar (kengroq qaralsa, so'zlovchining bu gap aytilgunga qadar shakllangan shaxsiyati) ham, boshqa muloqot ishtirokchilari aytgan gaplar ham ta'sir qiladi. Shunga qaramay, muayyan gapda so'zlovchining o'sha onda ongi-yu qalbidan kechgan o'y-hislari, modeligina mujassamlashadi. Demak, muayyan gapni butunning (nutq jarayonining) qismi sifatida ham, alohida yaxlit sifatida ham tushunishimiz mumkin⁴⁵, – deya ta'kidlagan.

Darhaqiqat, poetonimning ma'no maydoni faqatgina kontekstlarda namoyon bo'ladi, poetonim esa badiiy matnning yopiq dunyosidir. Uzoq yillar davomida badiiy matnda atoqli otlarni belgilashda adabiy antroponim asosiy termin bo'lib hisoblangan. Antropoetonim (yunoncha **“odam”** va poetonim) – badiiy asarda tilga olingan lirik qahramon, personaj, badiiy ifodaning subyektidir.

Dilrabo Andaniyazova fikrlariga qo'shilgan holda, poetik yukli shaxs nomlariga nisbatan **“antroponim”** emas, balki **“antropoetonim”**, hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar uchun **“zoopoetonim”**, joy nomlariga nisbatan **“topopoetonim”** tarzidagi sof sohaviy terminlarni qo'llash sohaga oid terminlarni bir qadar tartibga solishga yordam beradi, degan fikrlari⁴⁶ tarafdorimiz.

Muhammad Yusuf ijodining badiiy olamida poetonimlar katta o'rin tutadi. Masalan, *rayhon* fitonimi **“jannat hidi”**, **“olamdagi tengsiz ifor”** ma'nosida qo'llash

⁴⁵ Куронов Д. Бадият сирлари // Тафаккур. – 1998. – № 1. – Б. 78-83.

⁴⁶ Анданиязова Д.Р. Бадий матнда ономастик birliklar lingvopoetikasi: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2017. – Б. 12.

o‘zbek badiiy nutqida an’anaga aylangan bo‘lib, buni quyidagi misolda ko‘rish mumkin:

Rayhon hidlaringni

Yo‘llaringa sep...

Yoki:

